

## **Bolalar adabiyoti fanidan mustaqil ta'lim tashkil etishning nazariy asoslari**

*Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li*  
*Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi*  
*e-mail: [o.yulbarsov@nordicuniversity.org](mailto:o.yulbarsov@nordicuniversity.org)*  
*Raxmatqulova Gulhayo Raxmatqul qizi*  
*Xalqaro Nordik universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar yozuvchilari tomonidan yaratilgan ertaklar hamda xalq og'zaki ijodiga mansub, muallifi noma'lum ertaklar asosida mustaqil ta'lim materiallarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda ertak matnlarining o'zni, ularni tanlash, tizimlashtirish, kartoteka va interaktiv vositalar orqali taqdim etish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ertaklar asosida yaratilgan materiallarning pedagogik funksiyalari va talabaning kasbiy-kommunikativ salohiyatini rivojlantirishdagi o'zni ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** *bolalar adabiyoti, ertak, xalq og'zaki ijodi, mustaqil ta'lim, didaktik materiallar, pedagogik metodika, kartoteka.*

Zamonaviy pedagogik ta'limda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalar adabiyoti fanini o'qitishda talabaning individual o'quv faoliyatini samarali tashkil etish – o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, bolalar yozuvchilari hamda muallifi noma'lum ertaklar asosida yaratiladigan ta'limiy materiallar pedagogik jarayonning zaruriy komponentiga aylanmoqda.

Mustaqil ta'lim materiallarini badiiy adabiyot, xususan ertaklar asosida shakllantirish – talabani nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, balki uning estetik didi, tahlil qilish, tipik xulq-atvor modellarini farqlay olish, hayotiy ijtimoiy hodisalarga munosabatini shakllantiradi.

D. Muminova<sup>1</sup>, F. Rahman<sup>2</sup>, M. Xamidova<sup>3</sup> va boshqa ko'plab mutaxassislar bu borada ilmiy tadqiqot qarashlarini bildirganlar. Tadqiqotchilar fikricha, ertaklar bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi, axloqiy tushunchalarni anglab yetishi hamda tasavvur va tafakkur salohiyatining shakllanishida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Ertaklar – bolalar dunyoqarashi va ma'naviy-estetik tarbiyasining eng qadimiy va samarali vositalaridan biridir. Xalq ertaklarida to'plangan axloqiy

---

<sup>1</sup> Muminova D. Bolalar adabiyotining bola yoshiga munosibligini aniqlash mezonlari. Til va adabiyot ta'limi. 6-son. Toshkent – 2024, - B. 24-28

<sup>2</sup> Rahman F. The Revival of Local Fairy Tales for Children Education. Department of English Language Studies, Literature Hasanuddin university, Indonesia. Theory and practice in language studies, - Vol.:7, 2017. – pp. 336-344

<sup>3</sup> Xamidova M. Research articles. Bolalar adabiyotida ochko'zlik motivi. 2024. – 82 b.

qadriyatlar, xalq donishmandligi, badiiy obrazlar orqali beriladigan ijtimoiy axborot – yosh avlod tarbiyasining ma'naviy asos hisoblanadi. Shu bilan birga bolalar yozuvchilarining ertaklari zamonaviy ijtimoiy muammolar, bola psixologiyasi, axloqiy tanlov va qadriyatlar masalalarini bolalarga mos tilda yetkazib beradi.

Mustaqil o'qish uchun mo'ljallangan didaktik materiallar samarali bo'lishi uchun ular quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- tanlov mezonlari (matnning yoshga mosligi, g'oyaviy aniqligi, axloqiy yuklamasi, ifoda soddaligi);
- tizimlashtirish (ertaklarni mavzular, g'oya yo'nalishlari, axloqiy-didaktik funksiyalari bo'yicha guruhlash);
- kartoteka shakllari (bosma va raqamli formatdagi topshiriqlar majmuasi; har bir ertak uchun qisqacha annotatsiya, asosiy obrazlar tavsifi, savol-javoblar va ijodiy topshiriqlar berilishi);
- didaktik uslub (materialga tanqidiy fikrlash, mantiqiy bog'lanishlar, ijtimoiy tahlil va rol o'yin elementlari kiritilishi).

Ertak asosida tuzilgan mustaqil o'quv materiallari talabani o'quv jarayonida faol ishtirok etishga, o'zini anglashga va mas'uliyatni oshirishga undaydi. Bunday materiallar yordamida talaba mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, obrazli tafakkur hamda og'zaki nutq madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga pedagogik-psixologik tahlil ko'nikmalari hosil bo'lib, bu orqali talaba o'z fikrini dalillar bilan asoslashni o'rganadi. Ertak matnlari talabaning dunyoqarashi va qiziqishlarini kengaytirishga xizmat qiladi, shuningdek, kasbiy moslashuv jarayonida ijtimoiy va madaniy kontekstlarni tushunish orqali o'ziga xos moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Natijada, ertak asosida tuzilgan mustaqil ta'lim materiallari talabani nafaqat bilim bilan ta'minlab qolmay, balki uning ijtimoiy-hissiy va professional salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

### Mustaqil o'rganishning asosiy elementlari



### 1-rasm. Mustaqil o'rganishning asosiy elementlari

Ushbu diagramma — mustaqil o'rganishning asosiy elementlarini ko'rsatib, pedagogik jarayonda talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan omillarni tizimli tarzda yoritadi. Ushbu elementlar o'zaro bog'liq bo'lib, mustaqil ta'lim jarayonida talabaning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv natijasida talabalar bolalar adabiyoti fanining nazariy asoslarini chuqurroq o'zlashtiradi hamda amaliy faoliyatga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish salohiyatiga ega bo'ladi. Chunki ilmiy-nazariy motivlarining fan nutqai nazariga ko'ra tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

Ma'lumki, xalq ertaklari va muallifi mavjud ertaklar doimo bir-birini to'ldirib, qiyoslanib mutaxassislar tomonidan turli mulohazalarga sabab bo'ladi. Aslida ertaklarning aksari xalq og'zaki namunasi sifatida avloddan avlodga o'tib, takomillashib boradi. Bolalar yozuvchilari tomonidan turli davrlarda ishlov berilib shakllantiriladi. Quyidagi namuna jadvalda ta'lim jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan ertaklarni tartiblash va qiyoslash uchun qulaylik yaratadi.

1-jadval

| Muallifi mavjud ertaklar |                               |               | Muallifi noma'lum ertaklar |                        |
|--------------------------|-------------------------------|---------------|----------------------------|------------------------|
| №                        | Ertak nomi                    | Muallifi      | Xalq ertaklari             |                        |
| 1                        | Botir tikuvchi                | Aka-uka Grimm | Zumrad va Qimmat           | O'zbek xalq ertaklari  |
| 2                        | Shoh Saltan                   | A.Pushkin     | Oltin tarvuz               | O'zbek xalq ertaklari  |
| 3                        | Irkrit o'rdakcha              | H.Andersen    | Ur to'qmoq                 | O'zbek xalq ertaklari  |
| 4                        | Doktor Aybalit                | K.Chukovskiy  | Egrivoy va to'g'rivoy      | O'zbek xalq ertaklari  |
| 5                        | Chipollinoning sarguzashtlari | J.Rodari      | Uch og'ayni botirlar       | Xalq ertagi            |
| 6                        | Zolushka                      | Sh.Perro      | Aloviddin va sehrli chiroq | Arab xalq ertagi       |
| 7                        | Etik kiygan mushuk            |               | Sohibjamol va mahluq       | Yevropa xalq ertaklari |
| 8                        | Qizil qalpoqcha               |               | Bo'g'irsoq                 | Yevropa xalq ertaklari |

<sup>4</sup> Xamidova M. Research articles. Bolalar adabiyotida ochko'zlik motivi. 2024.

Tahlil qilingan jadval asosida muallifi mavjud (adabiy) ertaklar va muallifi noma'lum (xalq) ertaklari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar ko'zga tashlanadi. Har ikki turdagi ertaklar ham bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda, ularda fikrlash, his-tuyg'ular va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mualliflik ertaklari yozma adabiyotga mansub bo'lib, badiiy til va obrazlilik jihatidan murakkabroq tuzilgan. Bu esa, ayniqsa, boshlang'ich sinf va maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali bola muayyan yozuvchi ijodiy uslubi, ijtimoiy muhit va badiiy tafakkur olamiga oshno bo'ladi. Xalq ertaklari esa, asrlar davomida shakllangan og'zaki ijod namunalari bo'lib, xalqning ma'naviy-mafkuraviy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Ular sodda syujetga, ravon xalqona tildagi ifodalarga ega bo'lib, bolaning milliy o'zlikni anglashida, axloqiy-ruhiy kamolotga erishishida asosiy vositalardan biridir. Xalq ertaklaridagi halollik, mehnatsevarlik, jasorat, mehr va sabr-toqat singari fazilatlar tarbiyaviy jihatdan beqiyos o'rin tutadi.

Shu bilan birga e'tiborga olish kerak jihatlari ham mavjud. Xususan, ularning muallifi mavjud yoki mavjud emasligi borasida aniq to'xtamga kelish qiyin. Chunki har bir ertakda xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, madaniyati, yashash tarzi haqida ma'lumotlar og'zaki shaklda o'g'izdan og'izga o'tib keladi. Bu esa yozuvchilar o'z ertaklarida ma'lum xalqning mavjud rivoyat va ertaklaridan ilhomlanishi tabiiy hol hisoblanadi. Shuning uchun bu borada nazariy jihatdan tugal to'xtamga kelish qiyin. Ammo qiyosiy va nisbiy jihatdan ertaklarning statistikasini belgilashda muhim vosita bo'la oladi.

Shunday qilib, mualliflik va xalq ertaklaridan ta'lim-tarbiyada foydalanish — bolalarda axloqiy qadriyatlar, estetik did, ijtimoiy ong va milliy identitetni shakllantirishning muhim pedagogik manbalaridan biri hisoblanadi. Ularni to'g'ri tanlash va didaktik maqsadlarga muvofiq qo'llash zamonaviy ta'limda yuqori samaradorlik beradi. Shu nuqtai nazardan, ertaklar asosida mustaqil ta'lim materiallarini ishlab chiqish, bolalar bilan interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish va tarbiyaviy nutq faoliyatini rag'batlantirish bugungi pedagogik amaliyotning dolzarb yo'nalishlaridandir.

**Xulosa.** Bolalar yozuvchilari va muallifi noma'lum ertaklar asosida mustaqil ta'lim materiallarini tuzish — bu nafaqat o'qitish samaradorligini oshirishga, balki talabani kasbiy yetuklik sari yo'naltirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir. Bu kabi metodik ishlanmalar orqali talabaning mustaqil o'quv faoliyati samarador bo'lib, u bolalar tafakkuri, adabiy tahlil, psixologik yondashuv va tarbiyaviy qadriyatlar mazmunini ongli o'zlashtirishga erishadi. Shu sababli, ertak asosidagi materiallar tizimi — zamonaviy pedagogik ta'limning ajralmas qismiga aylanishi zarur.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Muminova D. Bolalar adabiyotining bola yoshiga munosibligini aniqlash mezonlari. Til va adabiyot ta'limi. 6-son. Toshkent – 2024, - B. 24-28
2. Rahman F. The Revival of Local Fairy Tales for Children Education. Department of English Language Studies, Literature Hasanuddin university, Indonesia. Theory and practice in language studies, - Vol.:7, 2017. – pp. 336-344
3. Xamidova M. Research articles. Bolalar adabiyotida ochko'zlik motivi. 2024. – 82 b.
4. Shomurodova, S. (2024). Yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda badiiy adabiyotning o'rni. *Nordic\_Press*, 3(0003).
5. Habibullayevna, V. N., & Mirshadmonovna, H. Z. (2019). Intellectual growth and development of the younger generation is a demand of the time. *European science*, (4 (46)), 54-57.
6. Kuldashv, S. (2025). Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini qo'llashning ahamiyati. *Nordic\_Press*, 7(0007).
7. Islamova, F. (2024). Бадий таълимда бўлажак ўқитувчини тайёрлашда касбий этика ва профессионал масъулият ҳиссини тарбиялаш муаммолари. *Nordic\_Press*, 3(0003).
8. Shomurodova, S. (2024). Finlandiyadagi ta'lim muassasalarida tarbiya tizimining o'ziga xos jihatlari. *Research focus*, 3(10), 84-86.
9. Shomurodova, S., & Muratova, a. (2025). Aleksandr Sergeyevich Pushkin ertaklari va o'zbek xalq og'zaki ijodi. *Nordic\_press*, 8(0008).
10. Odilovna, O. G., Gulnara, M., & Dilafruz, M. (2023). The Importance Of Independent Work In The Development Of Innovative Activities Of School Children. *Open Access Repository*, 4(03), 291-294.
11. Muratova, A. (2025). Turkiy adabiyot tarixida Yusuf alayhissalom obrazi. *Nordic\_Press*, 7(0007).